

Xalqimiz badiiy tafakkurini o'zida aks ettiruvchi asar

O'zining qadimiy va boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqi g'oyat ajoyib folklor an'analari yaratgan. Uning asosiy qismi og'zaki ijro sharoitlarida xalq ijodkorlarining aytib va kuylab berishi asosida o'zbek folklorshunoslari tomonidan yozib olingan.

Joriy yil 24-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida "Nomoddiy madaniy meros obyektlarini himoya qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish borasida belgilangan chora-tadbirlar" mavzusida matbuot anjumani o'tkazildi. Unda Institut xodimlari tomonidan nashrga tayyorlanayotgan 100 jildlik "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" kitobining 2018 yil davomida nashr etilgan 12 jildi haqida so'z yuritildi.



Ushbu 100 jildlik kitob Institutning noyob ilmiy obyekti - Folklor arxivi materiallari asosida tayyorlanmoqda. Bu muhtasham nashrning 59 jildi dostonlar, 10 jildi xalq qo'shiqlari, 12 jildi ertaklar, qolgan jildlari esa terma, afsona, rivoyat, naql, maqol, topishmoq, askiya, lof, latifa, og'zaki drama, bolalar folklori va boshqa janrlardan tashkil topadi.



Anjumanda soʻzga chiqqanlar bu kitobdagi dostonlar, ertaklar, qoʻshiqlar, latifalar – butun xalq ogʻzaki ijodi namunalari xalqimizning butun orzu-istaklarini, oʻy-kechinmalarini, qolaversa, boy madaniy merosimizni oʻzida aks ettirishi jihatidan ham kelajak avlod uchun juda qimmatli ekanligini taʼkidlashdi.

